

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI INVESTITSIYA DASTURINI SHAKLLANTIRISH VA AMALGA OSHIRISH TARTIBIGA OID

USLUBIY QO‘LLANMA



“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi
Toshkent – 2025

O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirish tartibiga oid qo'llanma. – Toshkent.
“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y. – ** b.

Mazkur qo'llanma O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirish tartibini tushuntirish hamda izchil yoritishga qaratilgan. Unda investitsiya siyosatini samarali amalga oshirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish va diversifikatsiya etishda davlat organlari hamda boshqa manfaatdor tomonlarning o'rni va vazifalari batafsil ochib beriladi.

Qo'llanma orqali investitsiya jarayonlarini huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy jihatdan tartibga solish mexanizmlari yoritilib, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida shakllangan yagona tizimning mazmun-mohiyati tushuntiriladi. Shuningdek, investitsiya loyihalarini tanlash, ularni tasdiqlash, moliyalashtirish va monitoring qilishning bosqichlari, ularga qo'yiladigan asosiy talablari ham izchil ko'rsatib o'tiladi.

Mazkur qo'llanma, bir tomondan, investitsiya jarayonlarida qatnashayotgan davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun amaliy qo'llanma vazifasini o'taydi. Ikkinchi tomondan esa, investitsiya muhitining ochiqligi va barqarorligini ta'minlash orqali O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-maydagi 90-sonli " Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida "gi farmoni	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi 4434-son " To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori	
Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-yanvardagi 16-sonli "O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori	

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda investitsiya dasturlarini to'g'ri shakllantirish va samarali ijrosini ta'minlash mamlakatning barqaror iqtisodiy taraqqiyotini kafolatlovchi asosiy vositalardan biri sifatida maydonga chiqmoqda.

Mazkur qo'llanma investitsiya dasturini tayyorlash, tasdiqlash va amalga oshirish jarayonlarini huquqiy, tashkiliy hamda iqtisodiy mezonlar asosida yoritishga qaratilgan. Unda loyihalarni tanlash mezonlari, moliyalashtirish manbalari, shuningdek, nazorat va monitoring mexanizmlarini yo'lga qo'yishning aniq tartib-taomillari bayon etilgan.

Bundan tashqari, qo'llanma davlat boshqaruvi organlari, tadbirkorlik subyektlari hamda boshqa manfaatdor ishtirokchilarning investitsiya jarayonidagi o'rni va mas'uliyatini aniqlab beradi. Natijada, investitsiya muhiti shaffofligi, iqtisodiy islohotlarning izchilligi va mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi loyihalarning amaliy natijadorligi ta'minlanadi.



Umumiy qoidalar

Mazkur uslubiy qo'llanmada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

- **axborot tizimi** — “investitsiya loyihalarini amalga oshirishni nazorat va monitoring qilish”ning avtomatlashtirilgan axborot tizimi;
- **biznes-reja** — investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun maqsadli ko'rsatkichlarga erishish yo'llarini va muammolarini tahlil qilish asosida yechimlarni belgilash va foyda ko'rishga qaratilgan tizimli faoliyat rejasi;
- **investitsiya loyihasi** — iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa foyda olish uchun investitsiyalarni amalga oshirishga yoki jalb etishga qaratilgan, o'zaro bog'liq bo'lgan tadbirlar majmui;
- **Investitsiya dasturini moliyalashtirish manbalari** — markazlashtirilmagan manbalar hamda xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari (keyingi o'rinlarda — XMI/XHMT), O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining mablag'lari;
- **investitsiyadan keyingi monitoring** — investitsiya loyihasi amalga oshirilgandan boshlab investitsiyadan keyingi davrda loyiha hujjatlarida ko'zda tutilgan maqsadli ko'rsatkichlarga erishishni kuzatish jarayoni;

- **investitsiyadan keyingi bosqich** — ishlab chiqarish quvvatlari foydalanishga topshirilgan paytdan boshlab obyektning besh yillik faoliyatiga qadar bo'lgan davr;
- **infratuzilma loyihasi** — past rentabelli yoki rentabelsiz ijtimoiy, yo'l-transport, suv xo'jaligi va muhandislik-kommunikatsiya obyektlarini qurish, modernizatsiyalash, rekonstruksiya qilish hamda kengaytirishga qaratilgan loyiha;
- **loyiha** — mahsulot (tovar, ish, xizmat)ni yaratishga yo'naltirilgan alohida o'zaro bog'langan tadbirlar majmui. Loyihalar maqsadidan kelib chiqib, investitsiya va infratuzilma loyihalariga bo'linadi;
- **loyiha tashabbuskorlari** — Investitsiya dasturi doirasida investitsiya loyihalarini amalga oshirishga rahbarlik qiluvchi davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar, xo'jalik birlashmalari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari;
- **loyiha-smeta hujjati** — hajmiy-rejali, amaliy va texnikaviy yechimlarni, binolar, inshootlar va boshqa obyektlarning qurilishi, rekonstruksiyasi hamda mukammal ta'mirlanishi, shuningdek, obodonlashtirish ishlari qiymatini belgilovchi loyiha hujjati;
- **loyiha hujjatlari** — loyihani moliyalashtirish shartlarini hisobga olgan holda belgilangan loyihani amalga oshirishning yakuniy, eng oqilona va samarali texnik, tashkiliy va moliyaviy-iqtisodiy yechimlarini belgilovchi ishchi loyiha;

- **loyiha pasporti** — Investitsiya dasturiga kiritish uchun taklif etiladigan loyihaning asosiy parametrlari to'g'risidagi axborotni o'z ichiga oluvchi hujjat;
- **markazlashtirilmagan manbalar** — investorning shaxsiy mablag'lari, O'zbekiston Respublikasining kafolatisiz olingan, shu jumladan, chet el banklaridan olingan bank kreditlari, to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari;
- **past quvvatda ishlayotgan korxona** — Investitsiya dasturi doirasida (moliyalashtirish manbalaridan qat'i nazar) ishga tushirilgan va quyidagi mezonlarga mos keladigan korxona:
 - mavjud quvvatlardan foydalanish belgilangan texnik-iqtisodiy parametrlarga nisbatan kam bo'lgan (yarim quvvatda ishlayotgan) va mos davrga nisbatan kam soliq to'lovlarini amalga oshirgan;uskunalarning ishlab chiqarish quvvatlaridan past darajada foydalaniladigan (60 foiz);
- **rivojlanish konsepsiyasi (strategiyasi)** — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan va uzoq muddatli istiqbolda sanoat tarmoqlari hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha strategik vazifalarni o'z ichiga oluvchi, aniq tarmoqlar va hududlarning kompleks, istiqbolli va ilmiy asoslangan rivojlanish rejasini o'zida aks ettiruvchi hamda mavjud muammolar bosqichma-bosqich va tizimli hal etilishini ta'minlovchi hujjat;

- **texnik-iqtisodiy asoslar yoki texnik-iqtisodiy hisob-kitob** — loyihaning umuman eng ko‘p miqdordagi qiymatini va moliyalashtirish ehtiyoji hajmini ko‘rib chiqilgan moliyalashtirishning dastlabki shartlarini hisobga olgan holda belgilab beruvchi muqobil variantlarni o‘rganish asosida loyihani amalga oshirishning eng samarali texnik-texnologik va tashkiliy yechimini tanlashni asoslab beruvchi loyihaoldi hujjatlar;
- **chetlanishlar** — bu investitsiyadan keyingi monitoring jarayonida aniqlanadigan texnik-iqtisodiy parametrlarning amaldagi natijalarining rejalashtirilgan natijalarga ko‘ra o‘zgarishlaridir.

Investitsiya dasturining loyihasi quyidagi tartibda shakllantiriladi:



Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi — XMI/XHMT, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari va boshqa markazlashtirilmagan manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalari bo‘yicha har yili 1-aprelga qadar Investitsiya dasturiga kiritish uchun loyihalarni shakllantirishga doir metodik tavsiyalarni ishlab chiqib, davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va xo‘jalik birlashmalariga taqdim etadi;





Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda Investitsiya dasturining barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan yig'ma ko'rsatkichlarni har yili 1-avgustga qadar shakllantiradi;



Tashqi ishlar vazirligi O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonalari bilan birgalikda Investitsiya dasturi loyihasiga kiritilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun chet ellik investorlarni jalb etishda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga ko'maklashadi.




Quyidagilar loyihalarni Investitsiya dasturining manzilli qismiga kiritishning majburiy shartlari hisoblanadi:



XMI/XHMT, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hamda markazlashtirilmagan manbalar hisobidan amalga oshiriladigan loyihalarning belgilangan tartibda tasdiqlangan loyihaoldi yoki loyiha hujjatlari yoki loyiha-smeta hujjatlari mavjudligi, to'g'ridan-to'g'ri, shu jumladan, chet el investitsiyalari hisobidan amalga oshiriladigan loyihalar bundan mustasno;



tasdiqlangan moliyalashtirish manbalari va loyihaning umumiy qiymati 500 ming dollardan kam bo'lmagan miqdorda;



investitsiya loyihalari bo'yicha loyiha pasporti;



Investitsiya dasturiga kiritish uchun boshqa asoslar (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining hujjatlari).

Quyidagilar Investitsiya dasturiga loyihalarni kiritish uchun tanlab olishning asosiy mezonlari hisoblanadi:

- loyihaning maqsadga muvofiqligi va iqtisodiy samaradorligi;
- kambag'allikni qisqartirish, ish o'rinlarini tashkil etish va aholining turmush darajasi sifatini oshirishni ta'minlashga yo'naltirilgan ijtimoiy manfaatlar;
- loyihaning tasdiqlangan tarmoqlar va hududlarni rivojlantirish konsepsiyalari va dasturlarining kutilayotgan natijalari bilan o'zaro bog'liqligi;
- loyihalarning bo'sh turgan yoki samarasiz foydalanilayotgan davlat mulki obyektlarida joylashtirilishi;
- ishlab chiqarish quvvatlarining jadal rivojlanishini, mineral xom ashyo resurslari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining chuqur qayta ishlanishini, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarning ishlab chiqarilishini ta'minlash hamda eksportga mo'ljallangan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish;
- loyihaning energiya samaradorligi va uni amalga oshirish natijasida elektr energiyasining tejamliligini ta'minlash.



Investitsiya loyihalari ro'yxatini xmi/xhmt, tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi va boshqa markazlashtirilmagan manbalar hisobidan shakllantirish

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi har yili 1-aprelga qadar Investitsiya dasturi loyihasini shakllantirish maqsadida tegishli shakllar, namunalar va maketlarni ishlab chiqadi va loyiha tashabbuskorlariga yuboradi.

Investitsiya dasturi loyihasini shakllantirish maqsadida har yili 1-mayga qadar:



loyiha tashabbuskorlari — vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari sohalar va hududlarni rivojlantirish konsepsiyalari va dasturlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlarini inobatga olgan holda investitsiya takliflarini (bunda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi "mahalla yettiligi"ning takliflarini olinishi ta'minlanadi);



Iqtisodiyot va moliya vazirligi — davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining ro'yxatini;



Davlat aktivlarini boshqarish agentligi — davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish va ularni xususiyashtirish doirasidagi investitsiya takliflarini Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga taqdim etadi.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda **har yili 20-iyunga qadar** Investitsiya dasturi loyihasiga kiritish uchun taqdim etiladigan loyihalar bo'yicha loyiha hujjatlariga muvofiq iqtisodiy samaradorligi, ustuvorligi va maqsadga muvofiqligidan kelib chiqqan holda, investitsiya takliflarini baholashni nazarda tutuvchi investitsiya loyihalarining dastlabki ro'yxatini shakllantiradi.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi birinchi navbatda, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini (elektr, gaz, suv ta'minotini, kanalizatsiya, yo'l va boshqalar) rivojlantirish va moliyaviy tahlilning umumqabul qilingan uslubidan foydalanish zarurligini hisobga olgan holda, ularni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini baholash natijalariga ko'ra Investitsiya dasturi loyihasiga kiritish uchun taqdim etiladigan investitsiya loyihalarini tanlab oladi.

Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv sohasida investitsiya loyihasi takliflari mahalliy hokimiyat vakillik organlari deputatlari tomonidan hududiy ichimlik suv ta'minoti tashkilotlari bilan birgalikda joylarga chiqqan holda tegishli aholi punktlarining

faollari bilan muhokama qilinib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar Kengashlarida muhokama qilishga kiritiladi.



Investitsiya dasturi loyihasini shakllantirish va tasdiqlash

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi:



manfaatdor davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar, xo'jalik birlashmalari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan kelishilgan holda, har yili 1-avgustga qadar taqdim etilgan takliflarni umumlashtiradi va dastlabki Investitsiya dasturining loyihasini hamda investitsiya loyihalarning manzilli ro'yxatlarini shakllantiradi;



har yili 10-avgustga qadar Investitsiya dasturining dastlabki loyihasini hamda investitsiya loyihalarining ro'yxatini Vazirlar Mahkamasiga ko'rib chiqish uchun kiritadi.



Bilib oling!

Vazirlar Mahkamasi har yili 25-avgustga qadar Investitsiya dasturining dastlabki loyihasini hamda investitsiya loyihalarining ro'yxatlarini Vazirlar Mahkamasining tegishli tarkibiy bo'linmalari bilan ko'rib chiqadi va Investitsiya dasturi bo'yicha takliflarni Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga taqdim etadi.



Loyiha tashabbuskorlari — vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari har yili 25-oktabrga qadar investitsiya loyihalarining loyiha-smeta hujjatlarini o'z vaqtida belgilangan tartibda ishlab chiqib, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bilan kelishilishini ta'minlaydi.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan kelishilgan holda, har yili 10-noyabrga qadar Investitsiya dasturi loyihasini, shu jumladan, Investitsiya dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirish bilan erishiladigan asosiy ko'rsatkichlarini, ularning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini hisobga olgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritadi.

Vazirlar Mahkamasi har yili 1-dekabrga qadar Investitsiya dasturining loyihasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritadi.



Investitsiya dasturining tuzilmasi

Investitsiya dasturi tuzilmasini quyidagilar tashkil etadi:

- 1-moliyaviy yilga investitsiyalarning asosiy parametrlari, moliyalashtirish manbalari, tarmoqlar va yoʻnalishlar boʻyicha keyingi ikki yil uchun prognoz koʻrsatkichlar;
- XMI/XHMT, Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasining mablagʻlari, markazlashtirilmagan manbalari hisobidan birinchi yilda mablagʻlari oʻzlashtiriladigan loyihalarning manzilli qismi;
- 2-yilda moliyalashtirishni boshlash va mablagʻlarni oʻzlashtirish uchun 1-yilda loyihaoldi va loyiha hujjatlari ishlab chiqiladigan, muvofiqlashtiriladigan va tasdiqlanadigan investitsiya loyihalarining roʻyxati;
- 2- va (yoki) 3-yili moliyalashtirishni boshlash va mablagʻlarni oʻzlashtirish uchun dastlabki 2 yilda ishlab chiqilishi kerak boʻlgan istiqbolli tarmoq va hududiy investitsiya loyihalarining roʻyxatlari.
- Bunda Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarning 2-yildagi va keyingi yillardagi koʻrsatkichlariga 1-yili tugallanmagan loyihalarni hisobga olgan holda, tarmoqlarni rivojlantirish boʻyicha tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq, shu jumladan, boshlanmagan

- loyihalar o'rniga yangi loyihalarni kiritish orqali har yili aniqlik kiritiladi;
- yig'ma jadvallarga ega tahliliy qism, shu jumladan, Investitsiya dasturini amalga oshirish hisobidan erishilishi kerak bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlar.



Investitsiya dasturi amalga oshirilishini monitoring va nazorat qilish

Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni amalga oshirish jarayonini monitoring va nazorat qilish “investitsiya loyihalarini amalga oshirishni nazorat va monitoring qilish” avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etish va undan foydalanishni tashkil etish reglamentiga muvofiq investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha tasdiqlanadigan kompleks tarmoq jadvali asosida amalga oshiriladi.

DIQQAT!

Kompleks tarmoq jadvali reglamentda belgilangan tartibda axborot tizimi yordamida shakllantiriladi, muvofiqlashtiriladi va tasdiqlanadi!



Loyiha tashabbuskorlari **har oyning 5-kunidan kechiktirmasdan**, axborot tizimi orqali **Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga** Investitsiya dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritib boradi.



Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi har oyning 10-kunidan kechiktirmasdan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi-ga Investitsiya dasturini amalga oshirish ishlarining borishi haqidagi jamlanma tahliliy ma'lumotni taqdim etib boradi.

DIQQAT!

Loyiha tashabbuskorlari investitsiya loyihalarining o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi uchun javobgar hisoblanadi.





Bilib oling!

Investitsiya dasturining axborot ta'minotini shakllantirish va yuritish ishlari Investitsiya dasturiga kiritilgan kapital qurilish obyektlari, ko'chmas mulk obyektlari, investitsiya loyihalari hamda ularga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar haqidagi ma'lumotlarni kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Axborot ta'minotini shakllantirish va yuritishda davlat sirlarini tashkil etuvchi ma'lumotlar bilan ishlash O'zbekiston Respublikasining "Davlat sirlari to'g'risida"gi Qonuni talablariga rioya qilingan holda amalga oshiriladi.



YAKUNLOVCHI QOIDALAR

ESLATMA!

"Investitsiya loyihalarini amalga oshirishni nazorat va monitoring qilish" avtomatlashtirilgan axborot tizimi Investitsiya dasturini amalga oshirish ishlarining borishi, shu jumladan loyihalar tashabbuskorlari mablag'larini, tijorat banklari kreditlarini, to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini hamda O'zbekiston Respublikasining davlat kafolati ostida olinadigan chet el kreditlarini o'zlashtirish va moliyalashtirish (jalb etish) bo'yicha statistika ma'lumotlarining axborot bazasi hisoblanadi.

ESLATMA!

Davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar, xo'jalik birlashmalari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Investitsiya dasturini amalga oshirish ishlarining borishi haqidagi, shu jumladan, XMI/XHMT, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari, loyihalar tashabbuskorlarining o'z mablag'lari, tijorat banklarining kreditlari, to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari hamda O'zbekiston Respublikasining davlat kafolati ostida olinadigan chet el kreditlari haqidagi ma'lumotlarni Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan qat'iy kelishgan holda tarqatadi.

Ilova

LOYIHA PASPORTI

1. Asosiy nizomlar

Loyiha nomi	
Tashabbus uchun asos	
Loyihaning tasdiqlangan rivojlanish konsepsiyalari va/yoki dasturlari bilan bog'liqligi (konsepsiya va/yoki dasturning nomi hamda dastur va konsepsiya doirasida loyihaning hal qilinadigan vazifalari)	
Loyihaning boshlanish va yakunlanish muddatlari	
Loyiha tashabbuskori (tashkilotning to'liq nomi, STIR, asosiy faoliyat turi, joylashgan joyi (pochta manzili), mulkchilik shakli, xodimlar soni, rahbarning F.I.O., bog'lanish uchun telefon raqami va faks raqamlari, elektron pochta manzili)	
Loyiha ijrochisi va hamijrochisi (tashkilotning to'liq nomi, STIR, asosiy faoliyat turi, yuridik va pochta manzili, mulkchilik shakli, xodimlar soni, rahbarning F.I.O., bog'lanish uchun telefon raqami va faks raqamlari, elektron pochta manzili)	
Loyihani amalga oshirish hududi	
Loyihaning umumiy qiymati	
Loyiha amalga oshirilayotgan tarmoq	

2. Loyiha tavsifi

Loyihani amalga oshirishdan maqsad	
Marketing ma'lumotlari	
ishlab chiqarilishi mo'ljallanayotgan mahsulot va uning xususiyatlari	
loyihaning boshqa raqobatdosh afzalliklari	
asosiy raqobatchilar	
import o'rnini bosuvchi yoki eksport qilinishi mo'ljallanayotgan mahsulot hajmi	
eksport maydoni	

**O'zbekiston Respublikasi investitsiya
dasturini shakllantirish va amalga
oshirish tartibiga oid qo'llanma**

Nashr uchun mas'ullar:

Muharrir:

Kompyuterda sahifalovchi:

Jamshid G'ofurov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi
"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi.

Nashr. lis. AI № 032, 29.10.2019.

Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.

Telefonlar: (99871) 233-28-18, (99871) 280-55-47

Veb sayt: www.adolatmarkazi.uz

e-mail: info@adolatmarkazi.uz

Qog'oz bichimi 60x841/16. "Calibri" garniturası.

Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i *

Nashriyot hisob tabog'i **. Adadi ** nusxa.

***-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.